

Axborotlashtirish va
telekommunikatsiyalar sohasida
nazorat inspeksiyasining
2024-yil 23-oktabrdagi
119-son buyrug'iga
2-ILOVA

**Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat
inspeksiyasi Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi**

NIZOM

I bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi Jamoatchilik kengashining (keyingi o'rinlarda – Kengash) tashkiliy-huquqiy faoliyati, vazifa va funksiyalari, huquq va majburiyatlari hamda javobgarligini belgilaydi.

2. Kengash ikki yil muddatga tuziladi.

3. Kengash o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi.

4. Kengashning ishchi organi Jamoatchilik bilan aloqalar bo'linmasi yoki (va) Axborot xizmati boshlig'i sanalib, u bir vaqtning o'zida Kengash kotibi hisoblanadi va u Kengash faoliyatini tashkiliy-uslubiy va axborot jihatdan ta'minlaydi.

5. Kengash va uning ishchi organi tavsiyalari va murojaatlari, shuningdek qarorlari Inspeksiya tomonidan majburiy ravishda ko'rib chiqiladi va o'z vaqtida asoslantirilgan javob beriladi, zarur islohotlar amalga oshiriladi hamda uning qarorlari tavsiyaviy xarakterga ega bo'ladi.

6. Kengash faoliyatiga soha xodimlarining asossiz aralashuvi yoki (va) uning faoliyatiga to'sqinlik qilishi soha xodimini intizomiy jazoga tortishga asos bo'lib xizmat qiladi.

7. Kengash o'z faoliyatini amaldagi qonunchilik hujjatlari, yuqori turuvchi yoki vakolatli organlar topshiriq va ko'rsatmalari, shuningdek Inspeksiya hujjatlari hamda ushbu Nizomga asosan amalga oshiradi.

8. Kengash Inspeksiyaning markaziy apparati huzurida tashkil etiladi va uning faoliyati barcha hududiy bo'linmalari hamda tasarrufidagi tashkilotlarga tatbiq etiladi.

II bob. Kengash tarkibi

9. Kengash quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

Kengash raisi — Kengash a'zolari tomonidan saylanadigan, rahbarlik lavozimida ishlaydigan hamda yetarli obro'-e'tiborga ega davlat xizmatchisi hisoblangan shaxs;

Kengash a'zolari — Inspeksiyada namunali xizmat ko'rsatgan mehnat faxriylari, jamoatchilik faoliyati sohalarida katta amaliy tajribaga ega obro'-e'tiborli fuqarolar, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari bo'lishi mumkin;

Kengash umumiy a'zolari soni 15 nafardan kam bo'lmasligi hamda ushbu tarkibning kamida 50 foizi nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari bo'lishi zarur;

Kengash kotibi — Jamoatchilik bilan aloqalar bo'linmasi yoki (va) Axborot xizmati boshlig'i.

10. Kengash a'ziligiga Kengash ishchi organining taklifi asos bo'ladi va Inspeksiya buyrug'i bilan Kengash tarkibi tasdiqlanadi.

11. Boshliq o'rinbosari, Inspeksiya markaziy apparati, hududiy bo'lim va shu'balari xodimlarini Kengash tarkibiga kiritish taqiqlanadi, bundan ushbu Nizomning 9-bandida ko'rsatilgan mutasaddilar mustasno.

12. Kengash tarkibining doimiy ravishda yangilab borilishi, Kengash nizomi va reglamentiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni o'z vaqtida amalga oshirish bo'yicha mas'uliyat Kengash ishchi organining zimmasida bo'ladi.

13. Quyidagi holatlarda Kengash raisi, rais o'rinbosari, kotibi va a'zolari uning tarkibidan chiqarilishi mumkin:

ular tomonidan Kengash tarkibidan chiqish to'g'risida ariza berilganda;

Kengash majlislarida muntazam ravishda ishtirok etmaganda;

mazkur Nizomda nazarda tutilgan Kengash majburiyatlarini bajarmaganda;

ularga nisbatan chiqarilgan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;

vafot etganda, shuningdek sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida ular muomlagaga layoqatsiz, bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb topilganda.

14. Kengashning tasdiqlangan a'zolari haqidagi ma'lumotlar, shuningdek ularning aloqa ma'lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari) va ularga kiritilgan o'zgartirishlar ular tasdiqlangan paytdan boshlab 5 kun ichida Inspeksiyaning rasmiy veb-saytida Kengash ishchi organi tomonidan e'lon qilinishi shart.

III bob. Kengashning asosiy vazifa va funksiyalari

15. Quyidagilar Kengashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) Inspeksiya, uning hududiy bo'limlari va shu'balari hamda tizimidagi tashkilotlar ustidan Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

b) birgalikda muloqot qilish tamoyilini amalga oshirish;

d) Inspeksiyaga nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni umumlashtirish va baholash;

e) Inspeksiyaning shaffofligi va ochiqqligini ta'minlash.

16. Quyidagilar Kengashning asosiy funksiyalari hisoblanadi:

a) Inspeksiya, uning hududiy bo'limlari va shu'balari hamda tizimidagi tashkilotlar ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish sohasida:

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishini ta'minlash choralarini ko'rish;

fuqarolar, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari hamda jamiyat manfaatlari himoya qilish sohasida qonunchilik hujjatlari talablari ijrosini ta'minlash;

Inspeksiya zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga dahl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish;

davlat xizmatlarini ko'rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha davlat organi va uning mansabdor shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga dahl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan davlat organining faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish;

Boshliq va uning o'rinbosari, maslahatchisi va xodimlarning fuqarolar bilan uchrashuvlarini, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq ishlarni tashkil etishda, shu jumladan, joylarga borib tashkil etishda qatnashish va ularni amalga oshirilishi ustidan monitoring o'tkazish;

xodimlar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilish masalalari bo'yicha Inspeksiya xodimlari o'rtasida keng tushuntirish ishlarini tashkil etish;

Inspeksiya, uning hududiy bo'limlari va shu'balarida hamda tasarrufidagi tashkilotlarda sog'lom ishchanlik muhitini rivojlantirish;

qonuniylikni, yuksak huquqiy madaniyat va axloqiylikni ta'minlash;

xodimlarda Vatanga sodiqlik ruhini va qonunlarga bo'lgan hurmatni kuchaytirish;

xodimlarni ijtimoiy-siyosiy, ruhiy va ma'naviy-ma'rifiy kamol toptirish;

raqamli texnologiyalar sohasidagi ilmiy-ma'rifiy va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Inspeksiya faoliyatini isloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish va ularni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

b) birgalikda muloqot qilish tamoyilini amalga oshirish sohasida:

Inspeksiyaning nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash uchun davlat organini fuqarolar bilan bog'lab turadigan "ko'priq" rolini bajarish;

Inspeksiya faoliyatiga doir masalalar yuzasidan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining tashabbuslari hamda murojaatlarini ko'rib chiqishda ishtirok etish;

Inspeksiya faoliyatiga doir masalalar yuzasidan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining tashabbuslari hamda murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Inspeksiyaga tegishli takliflar kiritish;

Inspeksiyaning fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorligini tahlil qilish;

o'zaro hamkorlikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Inspeksiya faoliyatiga taalluqli uning normativ-huquqiy hujjatlari va qarorlarini takomillashtirish;

Inspeksiya faoliyatiga taalluqli uning normativ-huquqiy hujjatlari va qarorlaridagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat dasturlari loyihalari, tadbirlar rejalarini va davlat organi faoliyatiga taalluqli, shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi boshqa hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidan takliflar tayyorlash;

qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishda vakolatlari doirasida ishtirok etish;

yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlash;

Inspeksiya xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini yaxshilashda, shuningdek egallab turgan lavozimidan ozod etilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish muammolarini hal etishda ko'maklashish;

mavjud muammolarni hal qilish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

d) Inspeksiyaga nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni umumlashtirish va baholash sohasida:

Inspeksiyaga nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalar bo'yicha takliflarni Inspeksiya xodimlari o'rtasida muhokama qilishga bag'ishlangan tadbirlarni tashkil etishda qatnashish;

bajarilgan ishlar samaradorligini tahlil qilish;

Inspeksiyaga nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni ko'rib chiqish;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga dahl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan davlat organining faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish;

ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, jumladan ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkazish;

e) Inspeksiyaning shaffof va ochiqligini ta'minlash sohasida:

jamoatchilikni Inspeksiya faoliyatini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar haqida muntazam ravishda xabardor qilishni ta'minlash;

Inspeksiya faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlarini tashkil etishda ishtirok etish;

Inspeksiya faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo'yicha bajarilayotgan ishlar natijalarini tahlil qilish;

Inspeksiyaning samaradorligini oshirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamda fuqarolar bilan hamkorlik qilish;

davlat organi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o'tkazish, shuningdek ularning natijalari bo'yicha takliflar tayyorlash;

Inspeksiya faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to'g'risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Inspeksiyaning rasmiy veb-saytida Jamoatchilik kengashi faoliyati bilan bog'liq ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni joylashtirib borish hamda ularning har chorakda yangilanib borilishini ta'minlash;

Inspeksiya faoliyati bo'yicha fuqarolar o'rtasida o'tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Inspeksiya xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini, shuningdek egallab turgan lavozimidan ozod etilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo'yicha muammolarni kompleks tahlil qilish hamda tahlil yakunlari bo'yicha mazkur sharoitlarni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish.

IV bob. Kengashning asosiy huquq va majburiyatlari hamda javobgarligi

17. Quyidagilar Kengashning asosiy huquqlari hisoblanadi:

Inspeksiya tomonidan tashkil etiladigan bo'lajak ochiq hay'at majlislari va boshqa ommaviy tadbirlar to'g'risidagi axborotni oldindan olish hamda mazkur tadbirlarda ishtirok etish;

Inspeksiyaning, jumladan uning hududiy bo'limlari va shu'balari hamda tasarrufidagi tashkilotlarning binolari (xonalari) va boshqa obyektlarini davlat organi tomonidan belgilangan tartibda borib ko'rish;

Inspeksiya, uning hududiy bo'limlari va shu'balari hamda tasarrufidagi tashkilotlari rahbarlariga Jamoatchilik kengashi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;

Inspeksiya faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan davlat organining axborotlari, statistika va boshqa materiallarini belgilangan tartibda olish;

Inspeksiyaning qonun ijodkorligi faoliyatida, davlat organi tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik va ekspertlar muhokamasini ta'minlashda ishtirok etish;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlariga davlat organi tomonidan berilgan javoblar sifatini tahlil qilish;

Jamoatchilik kengashi majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun konferensiyalar, forumlar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

Kengash qonunchilik hujjatlari hamda "O'zkomnazorat" Inspeksiyasi hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

18. Kengashning asosiy majburiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish;

Inspeksiya faoliyati bilan bog'liq qonunchilik hujjatlarida belgilangan cheklovlarga amal qilish;

Inspeksiya va uning mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmaslik;

fuqarolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'ymaslik;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish davomida olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo'lsa, maxfiyligiga rioya qilish;

Kengashning zimmasida qonunchilik hujjatlari hamda Inspeksiya hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

19. Kengash va uning tarkibidagilar amaldagi qonunchilik hujjatlari hamda ushbu Nizom va o'z Reglamentiga asosan o'z majburiyatlarini bajarmaganligi va Kengash vazifalari lozim darajada bajarilmaganligi bo'yicha javobgar sanaladi.

V bob. Yakunlovchi qoidalar

20. Kengash faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash Inspeksiya tomonidan, shuningdek qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

21. Kengashning faoliyati uning Nizomiga, Reglamentiga va O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq ekanligi Inspeksiya boshlig'i tomonidan nazorat qilinadi.

22. Kengash va Inspeksiyasi boshlig'ining Kengash faoliyati bilan bog'liq qarorlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.